



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 17-fevral

74-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-fevraldagi PQ–41-sonli, shu haqidagi viloyat hokimining 2025-yil 11-fevraldagi 63-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-fevraldagi PQ–41-sonli, shu haqidagi viloyat hokimining 2025-yil 11-fevraldagi 63-6-0-Q/25-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N :

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-fevraldagi PQ–41-sonli, shu haqidagi viloyat hokimining 2025-yil 11-fevraldagi 63-6-0-Q/25-sonli qarorlari rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

shunday tartib o‘rnatiladiki, unga ko‘ra 2025-yil 1-martdan boshlab tajriba-sinov tariqasida bosqichma–bosqich Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida, 2025-yil 1-oktabrga qadar respublikaning qolgan hududlarida 3 yoshdan 18 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolalar uchun davlat-xususiy sheriklik asosida kunduzgi parvarish xizmati (keyingi o‘rinlarda - kunduzgi parvarish xizmati) yo‘lga qo‘yilishi:

bunda nogironligi bo‘lgan bolalar kunduzgi parvarish xizmatiga ularning ota-onalari (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) bilan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari o‘rtasida tuzilgan ijtimoiy shartnoma asosida hamda Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan belgilangan tartibda berilgan xulosaga muvofiq qabul qilinishi;

2025-yil 1-martdan boshlab kunduzgi parvarish xizmatiga oid faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning quyidagi tartibi joriy etilishi;

a) Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan:

kunduzgi parvarish xizmatidan foydalanilgan bir kun uchun 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan har bir bolaga bazaviy hisoblash miqdorining 25 foizi miqdorida va 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan har bir bolaga - 27 foizi miqdorida subsidiya ajratilish, bunda viloyatlar markazlari, Toshkent va Nukus shaharlari uchun subsidiya miqdori 1,1 ko'paytiruvchi koeffitsiyentni qo'llash orqali aniqlanishi;

kambag'al oilalar reestriga kiritilgan oilalarning nogironligi bo'lgan har bir bolasi uchun mazkur kichik bandning ikkinchi xatboshisida belgilangan subsidiya umumiy miqdorining 30 foizi miqdorida qo'shimcha mablag' to'lab berilishi;

kunduzgi parvarish xizmati tashkil etilgan joydan 3 kilometr radiusdan ortiq masofada yashaydigan bolalarning kelib-ketishlari uchun xususiy sherik tomonidan transport xizmati yo'lga qo'yilganda, unga tarbiyalanuvchining haqiqatda qatnagan kunlari sonidan kelib chiqqan holda bir oy uchun bazaviy hisoblash miqdorining 75 foizigacha miqdorda kompensatsiya to'lanishi;

b) 2027-yil 1-iyulga qadar kunduzgi parvarish xizmatini yo'lga qo'ygan tadbirkorlik subyektlariga Markaziy bankning asosiy stavkasida davlat-xususiy sheriklik loyihasi doirasida mebel va jihozlar xaridi uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi;

bunda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarida ishtirok etayotgan banklarga imtiyozli kredit ajratish uchun Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt past stavkada 30 milliard so'mgacha miqdorda resurs ajratilishi;

belgilab qo'yilishicha, ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni tashkil etish jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida:

a) 2025-yil 1-martga qadar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida, jumladan, quyidagi imkoniyatlarga ega "Kunduzgi parvarish xizmatini boshqarish" axborot moduli hamda uning mobil ilovasi yaratilishi;

mobil ilova yordamida tarbiyalanuvchilarning davomatini shaxsni biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi orqali yuritishi;

Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladigan subsidiyalar miqdorini tarbiyalanuvchilarning davomati asosida avtomatik ravishda hisoblab chiqishi;

b) 2025-yil 1-sentabrga qadar bolalarning rivojlanishida kuzatiladigan nuqsonlarni erta aniqlash va o'z vaqtida kompleks ijtimoiy-tibbiy yordam bilan qamrab olish, ularda nogironlikning oldini olish hamda nogironligi bo'lgan bolalarda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni ta'minlashga ko'maklashuvchi, jumladan, quyidagi imkoniyatlarga ega "Bolalar salomatligi" axborot tizimi joriy etilishi;

kompleks ijtimoiy-tibbiy yordam bilan qamrab olish uchun har bir bola kesimida qo'yilgan tashxislarni tahlil qilishi;

ro'yxatga olingan bolalar uchun tibbiy, rehabilitatsiya, ta'lim, ijtimoiy xizmatlar va to'lovlarni o'z ichiga olgan yaxlit ma'lumotlar asosida keng qamrovli xizmatlarni tashkil etishi;

d) mazkur badda nazarda tutilgan axborot tizimlarini ishga tushirish va ularni keyinchalik saqlab turish xarajatlari Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi;

Ijtimoiy himoya milliy agentligi Sog‘liqni saqlash vazirligi va Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda mazkur qarorning 3-bandida nazarda tutilgan axborot tizimlarining o‘z vaqtida ishga tushirilishini hamda ishga tushgandan so‘ng bir oy muddatda ularning “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza” va “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlashi;

Ijtimoiy himoya milliy agentligi:

a) uch oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda, Soliq kodeksiga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

davlat-xususiy sheriklik asosida kunduzgi parvarish xizmatini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini 2030-yil 1-yanvarga qadar barcha turdagi soliqlarni (bundan ijtimoiy soliq mustasno) to‘lashdan ozod qilishi;

ota-ona (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar)ning kunduzgi parvarish xizmatlaridan foydalangani uchun oyiga 3 million so‘mgacha bo‘lgan to‘lovlarini soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritishi;

b) 2025-yil 1-oktabrga qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda hududlarda nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirish bo‘yicha takliflarni kiritishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlari markazi (E.Abduraxmanov), tuman Tibbiyot birlashmasi (O.Qo‘ldoshev) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-fevraldagi PQ-41-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov hamda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov